

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISHI

Xusnidinova Madina Javlon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14853112>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanishi va uning global hamda O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Maqolada Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi (EGDI) tushunchasi va uning asosiy tarkibiy qismlari – onlayn xizmatlar indeksi, telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi va inson kapitali indeksi haqida ma’lumot berilgan. O‘zbekistonning EGDI bo‘yicha ko‘rsatkichlari boshqa davlatlar bilan taqqoslanib, mamlakatda raqamli transformatsiyaning ahamiyati va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha jadal rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirib, “juda yuqori EGDI” guruhiga qo‘shilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, “Raqamli O‘zbekiston– 2030”, elektron hukumat, EGDI, onlayn xizmatlar indeksi (OSI), telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII), inson kapitali indeksi (HCI), raqamli texnologiyalar, innovatsiya, elektron xizmatlar, IT rivojlanishi, davlat boshqaruvi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil, 5- oktabr kuni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzolagan bo‘lib, bunda o‘z oldiga quyidagi ustuvor vazifalar qo‘yilgan¹:

- davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan Strategiya, hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari, “yo‘l xarita”larida ko‘zda tutilgan loyiha va chora-tadbirlarning to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, ularning o‘z vaqtida bajarilishini tizimli nazorat qilish;
- har oyda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha rejalashtirilgan loyihalar va chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan hisobotlarini tinglash hamda ularning javobgarligi masalasini ko‘rib chiqish;
- doimiy monitoring asosida elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi funksional jarayonlar va tartib-taomillarni optimallashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko‘rib chiqish va ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda “yo‘l xarita”lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va boshqalar.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lib, texnologiyalar, raqamli infratuzilma va innovatsion yondashuvlarga asoslangan iqtisodiy modelni anglatadi.

¹ PF-6079-coh 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Raqamli iqtisodiyotni o'rganar ekanmiz, birinchi navbatda "raqamli iqtisodiyot qanday paydo bo'lgan?"- degan savolga javob topishimiz lozim.

Don Tapscott birinchi bo'lib "raqamli iqtisodiyot" atamasini 1995-yilda nashr etilgan "The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence" kitobida ishlatgan.

Dastlab, raqamli iqtisodiyot ba'zan internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot deb ham atalgan, chunki u internetga bog'liq edi. Biroq iqtisodchilar va biznes yetakchilari raqamli iqtisodiyot internet iqtisodiyotiga qaraganda ancha rivojlangan va murakkab ekanini ta'kidlaydilar. Ba'zi ta'riflarga ko'ra, bu shunchaki internetdan olingan iqtisodiy qiymatni anglatadi².

Raqamli iqtisodiyot uchinchi sanoat inqilobidan to'rtinchi sanoat inqilobiga o'tishni aks ettiradi. Uchinchi sanoat inqilobi – ba'zan raqamli inqilob deb ham ataladi – 20-asr oxirida analog elektron va mexanik qurilmalardan raqamli texnologiyalarga o'tish jarayonini bildiradi. To'rtinchi sanoat inqilobi esa, raqamli inqilob asosida rivojlanib, jismoniy dunyo bilan kiberdunyoni yanada yaqinlashtirayotgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Jahon iqtisodiyoti yirik, hamda tezkor bo'lgan raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda, bu esa yangi biznes modellari, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishiga olib kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotiga to'xtalar ekanmiz, BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Ishlar Departamenti (UN DESA) tomonidan 2001-yildan buyon har ikki yilda bir marta amalga oshiriladigan loyiha-Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi (E-Government Development Index- EGDI) haqida gapirmasak bo'lmaydi.

Ushbu loyiha mamlakatlarning raqamli hukumat (e-government) rivojlanish darajasini baholaydi. EGDI quyidagi uchta asosiy komponent asosida hisoblanadi:

1. Onlayn xizmatlar indeksi (Online Service Index – OSI) – davlat xizmatlarining internet orqali taqdim etilish darajasini baholaydi.

2. Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index – TII) – internet, mobil aloqa, keng polosali tarmoqlar kabi texnologik imkoniyatlarning mavjudligini o'lchaydi.

3. Inson kapitali indeksi (Human Capital Index – HCI) – ta'lim va savodxonlik darajasini hisobga olgan holda aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini baholaydi.

EGDI 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda baholanadi, bunda 1 eng yuqori rivojlangan darajani ifodalaydi.

EGDI ning ahamiyati shundaki:

- Davlatlarning raqamli transformatsiya bo'yicha qanchalik oldinga ketganini ko'rsatadi.
- Hukumatlar uchun texnologiyaga asoslangan xizmatlarni yaxshilashga yordam beradi.
- Mamlakatlarning xalqaro raqamli iqtisodiyot va jamiyatga integratsiyalashuvini o'lchash imkonini beradi.

² Raqamli iqtisodiyot asoslari. G'.M. PORSAEV, B.SH. SAFAROV, D.Q. USMANOVA (Darslik)

1-jadval

**Eng yuqori EGDI qiymatlariga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyati
yo‘q bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar³**

Davlatlar	EGDI reyting	OSI qiymati	TII qiymati	HCI qiymati	EGDI (2024)	EGDI (2022)
Qozog‘iston	24	0.9390	0.9235	0.8403	0.9009	0.8628
Mongoliya	46	0.8222	0.9374	0.7775	0.8457	0.7209
Armaniston	48	0.7922	0.8782	0.8561	0.8422	0.7364
O‘zbekiston	63	0.7648	0.8769	0.7580	0.7999	0.7265
Moldoviya Respublikasi	70	0.7264	0.8118	0.7776	0.7719	0.7251
Ozarbayjon	74	0.7386	0.8203	0.7233	0.7607	0.6937
Qirg‘iziston	78	0.6072	0.8815	0.7061	0.7316	0.6977
Paragvay	80	0.6712	0.7947	0.7093	0.7251	0.6332
Shimoliy Makedoniya	84	0.6642	0.7546	0.7023	0.7070	0.7000
Boliviya	99	0.5987	0.7089	0.6876	0.6651	0.6165
Butan	103	0.5886	0.8169	0.5478	0.6511	0.5521
Botsvana	112	0.3985	0.8649	0.5719	0.6118	0.5495
Esvatini	113	0.4557	0.7851	0.5836	0.6081	0.4498
Ruvanda	118	0.8207	0.3724	0.5467	0.5799	0.5489
Nepal	119	0.4481	0.7653	0.5210	0.5781	0.5117
Tojikiston	123	0.4476	0.5810	0.6531	0.5606	0.5039
Zambiya	130	0.4958	0.5088	0.6225	0.5424	0.5022

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyati yo‘q bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Qozog‘iston eng yuqori EGDI qiymatiga ega (0,9009). Mo‘g‘uliston, Armaniston, O‘zbekiston, Moldova Respublikasi va Ozarbayjon 2024-yilda birinchi marta juda yuqori EGDI guruhiga qo‘shildi. EGDI qiymatlari juda yuqori bo‘lgan dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlar orasida Mo‘g‘uliston EGDI reytingida eng sezilarli yaxshilanishni boshdan kechirdi va 28- pozitsiyaga ko‘tarildi, so‘ngra Armaniston 16- pozitsiyaga ko‘tarildi. 1-jadvalda keltirilgan o‘n bitta boshqa mamlakat (Qirg‘iziston, Paragvay, Shimoliy Makedoniya, Boliviya, Butan, Botsvana, Esvatini, Ruanda, Nepal, Tojikiston va Zambiya) yuqori EGDI qiymatlariga ega 0,5424 dan 0,7316 gacha. Ushbu 11 mamlakat orasida Esvatini reytingda 29- pozitsiyaga ko‘tarildi va o‘rtadan yuqori EGDI guruhiga o‘tdi va Paragvay va Butan o‘z reytinglarini mos ravishda 14- va 12- pozitsiyalarga yaxshiladilar⁴.

O‘zbekistonning EGDI bo‘yicha reytingi 2022-yildan 2024-yilgacha 0.7265 dan 0.7999 gacha oshgan, bu esa mamlakatda raqamli transformatsiya bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston EGDI bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yuqori ko‘rsatkichga ega davlatlardan biri bo‘lib, 2024-yilda “juda yuqori EGDI” guruhiga kirgan. Ayniqsa, onlayn xizmatlar indeksi bo‘yicha O‘zbekiston eng yuqori reytingga ega mamlakatlar qatoriga kiritilgan.


³ 2022 and 2024 United Nations E-Government Surveys nashriyoti

⁴ <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>

So‘nggi EGDI reytingida Daniya, Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlar yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda EGDI ko‘rsatkichi oshib bormoqda(1-rasm).

Onlayn xizmatlar indeksi- bu indeks davlatlarning internet orqali taqdim etayotgan xizmatlarining sifatini va mavjudligini o‘lchaydi. U davlatlarning onlayn xizmatlarining darajasi va ularning fuqarolarga qanday foydalanish imkoniyatlarini yaratganini baholaydi.

1-rasm



Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonning iqtisodiy va texnologik taraqqiyotida muhim omilga aylanmoqda. Davlat tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlarni kengaytirish va aholi savodxonligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida mamlakat EGDI reytingida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o‘shirish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo‘lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog‘liqni saqlash, fan-ta’lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o‘zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o‘z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko‘rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. PF-6079-сoн 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. Raqamli iqtisodiyot asoslari. G‘.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova (Darslik)
3. “2022 and 2024 United Nations E-Government Surveys” nashriyoti
4. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>